

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING HINDISTON TARIXIDA TUTGAN
O'RNI.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tarix yo'nalishi 2- kurs talabasi

Zakirjanova Mahliyo

Ilmiy rahbar: Sulaymanova Shoxsanam Absamatovna

Annotatsiya. Ushbu maqolada ulug' bobolarimizdan biri Zahiriddin Muhammad Bobur o'rta asr Sharq madaniyatiga ta'siri, sarkardalik va davlatni boshqarishdagi adolati, keng dunyoqarashi va aqlu-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nom qozonganligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. Movaronnahr, qo'shin, rojalar, Panipat jangi, Lo'diylar, adabiyot, davlat, sulola, islohot, buddizm, musulmon.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yilning 14 fevralida Andijonda, Farg'ona ulusining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga keldi. Bu davrda Markaziy Osiyo va Xurosonda turli hokimlar, aka-ukalar, tog'a-jiyanlar, amakivachchalar o'rtasida hokimiyat ulug' bobolari Amir Temur tuzgan yirik davlatga egalik kilish uchun kurash nihoyat keskinlashgan edi. Bobur 1494 yili otadan yetim qoldi. 12 yoshida otasi o'rniga Farg'ona ulusining hokimi etib ko'tarilgan Bobur qalamni qilichga almashtirib, Andijon taxti uchun ukasi Jahongir Mirzo, amakisi Sulton Ahmad Mirzo, tog'asi Sulton Mahmudxon va boshqa raqiblarga qarshi kurashishga majbur bo'ldi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan murosaga kelish uchun unga yon berishga Farg'ona ulusini ikkiga taqsimlab, yarmini ukasiga topshirishga qaror qildi va o'zi Samarqand uchun olib borilayotgan kurashga kirishib ketdi. Bir necha yil davom etgan bu kurash qirg'inbarotdan boshqa biror natija bermadi: unda katta harbiy kuch bilan aralashgan Shayboniyxonning qo'li baland keldi va Bobur Samarqandni tashlab ketishga majbur bo'ldi. 1504 yili Shayboniyxon Andijonni ham qo'lga kiritgandan so'ng Bobur janubga qarab yo'l oldi va Kobul ulusida o'z hokimiyatini o'rnatdi.

XVI asr boshlarida Hindiston siyosiy parokandalik holatida edi. O'zora feodal urushlar savdo-sotiqning va dehqonchilikning rivojlanishiga yamon tasir qildi natijada aholi davlatdagu urushlarni bostiradigan katta kuch paydo bo'lishiga umid qilib kelardi. XVI asr 20-yillaridadan Dehlida hokimiyatni egallab turgan sulton Ibrohimning harakatlari ajralib chiqqan vasallarni o'z hukmi ostida birlashtirish uchun yetarli bo'lmadi. Natijada sulton Ibrohimning siyosatidan norozi bo'lgan saroy a'yonlari orasida o'sha paytda Kobulda hukmdor bo'lib turgan Zahiriddin Muhammad Boburni taxtga taklif qilish g'oyasi paydo bo'ldi. Talantli sarkarda, tajribali davlat arbobi va ajoyib shoir Bobur bu qulay sharoitdan ustalik bilan foydalanadi.

1526-yili Boburning janglarda toblangan 20 ming qo'shini Afg'onistonning tog'li yo'llari orqali Hindistonni ishg'ol qildi. Hind rojalari birlasha olmadilar va Boburga qarshilik qilishga ojizlik qildilar. Uning qo'shini katta ustunlikka ega edi. Shu ustunlik,

ajoyib sarkardalik mahorati va jangdagi uddaburonlik tufayli Bobur qisqa vaqt ichida Shimoliy Hindistonning katta qismini o'ziga bo'ysundirdi. 1526-yil 21-aprelda Panipat yonidagi jangda sulton Ibrohim Lo'diy qo'shinlarini tor mor qildi va Dehlini egalladi. Boburni taxtga taklif qilgan saroy a'yonlari undan faqat sulton Ibrohimga qarshi foydalanmoqchi edilar, xolos. Bobur Dehli taxtida uzoq vaqt o'tirmaydi, olingan o'ljalari ko'rsatgan yordami uchun yetarli, taxtni o'zlariga qoldirib, qaytib ketadi, deb hisoblashgandi. Ammo Bobur Dehli taxtida uzoq vaqt qolishini tushungan Hind zodagonlari unga qarshi Rano Sango atrofida birlashdilar. 1527-yil 13-martda bo'lgan jangda Rano Sango qo'shinlarini ham mag'lubiyatga uchratadi.

Bobur yana bir qancha hind yerlari bosib oldi va o'zini bu yerlarning hukmroni deb e'lon qildi. U asos solgan davlatni g'arb tarixchilari „Buyuk Mo'gullar imperiyasi“ deb atashadi. U g'arbda Kobuldan Sharqda Bengaliya chegaralarigacha bo'lgan hududni qamrab oldi.

Bobur qobilyatli va uzoqni qo'ruvchi siyosatchi, lashkarboshi va davlat arbobi, shoir va tarixchi olim edi. U hammadan ko'proq hind xalqi zarar ko'rayotgan feodal urushlarni tugatdi, savdo-sotiq, qurilish, fan va adabiyotga homiylik qildi. Bu buyuk bobomiz Turkiston, Hindiston va Afg'oniston xalqlari tarixiga, ularning san'ati, urf-odatlariga va diniga qiziqish va hurmatini namoyan qildi. Hindistonda buddaviy va musulmonlarga bir xil munosabatda bo'ldi. Shu xislatlar tufayli u o'zi zabt etgan hududda qudratli davlat barpo etdi va madaniyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi.

Bobur Hindistonda siyosiy muhitni barqarorlashtirish, Hindiston yerlarini birlashtirish, shaharlarni obodonlashtirish, savdo-sotiq masalalarini to'g'ri yo'lga qo'yish, bog'-rog'lar yaratish ishlariga homiylik qildi. Hindistonni obodonlashtirish, unda hozirgacha mashhur bo'lgan me'moriy yodgorliklar, bog'lar, kutubxonalar, karvonsaroylar qurdirish ishlariga bosh bo'ldi.

Bobur Hindiston taxtida uzoq o'tirmadi u 1530 yil dekabr oyida Agra shahrida vafot etdi va keyinroq uning vasiyatiga ko'ra farzandlari uning xokini Kobulga olib kelib dafn etdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Ma'naviyat yulduzlari” (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999) kitobi.
2. Shuhrat Ergashev Jahon tarixi.
3. Uilyams Rashbruk „XVI asr bunyodkori”
4. Mirzo Rashidiy „Tarixi Rashidiy”
5. Abdulloh Nasrulloh “ Zubdat ul-asar”
6. Gulbadanbegim „Humoyunnoma”